



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA ONA-VATAN MADHI

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili 2-fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: muxlisah@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995259>

Annotatsiya: Maqolada Erkin Vohidov she'riyatida ona-Vatan mavzusining yoritilishi tadqiq etiladi. Shuningdek, shoir ijodida mazkur mavzuning badiiy talqin etilishidagi ijodiy o'ziga xoslik tahlil qilinadi. Qolaversa, she'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda hamda ijodkor mahorati masalalari xususida atroflicha mulohaza bildirilib, mavzuga xos she'rlarini o'rganish jarayonidagi nazariy va badiiy tahlil natijalari umumlishtiriladi.

Kalit so'zlar: badiiy ifoda, individuallik, obrazlilik, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

Abstract: The given article notice topic illumination be investigate Erkin Vohidov in poetry. As such creative specific be analyze the topic's be artistically interpretation poet in remembrance. From after that, then result's be generatize theory and artistically. In the topic peculiar poetry study process of events and thoroughly be opinion in the poetry mental condition the creator's skill.

Key words: individuality, literary interpretation, literary, idea, philosophic interpretation.

Ma'lumki, she'r asosida insonning his-tuyg'u, ichki kechinmalari, tabiat va jamiyat hodisalaridan olgan taassurotlar natijasi bo'lmish tafakkur aks etadi. Shunday ekan, badiiy adabiyot orqali inson ma'naviy olami boyib, tasavvuri, estetik didi shakllanib boradi. Adabiyotning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelayotgan ona-Vatanga bo'lgan sadoqat, o'zligi, ona yurtidan faxrlanish singari tuyg'ularni yoshlar ongiga singdirish eng muhim masalalardan biridir. Zero, I.Karimov ta'kidlaganidek: "Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq. Bu o'z navbatida har bir yurtoshimizning zimmasidagi yuksak fuqarolik ma'suliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi" [1.73].

Sevimli shoirimiz O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, undagi rang-barang qarashlar, turfa xil mavzudagi ijod namunalaridan bahramand bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shoir ijodida Vatanga bo'lgan muhabbat alohida o'rin olgan. Xususan, "O'zbekiston", faxriyasiga shunday satrlarni uchramiz:

Yurtim,

Seni yana oldim qalamga

Yarim asr yoshing bahona bo'lib.

Yana kelib qo'nding tonggi misramga



Falak nisor etgan durdona bo'lib.

Iqbol peshonamga bitgan oshyonim – O'zbekistonim [3.218].

Ushbu satrlar orqali, shoir o'z yurtiga murojaat qilib, unga bo'lgan mehrim sabab madh qilish uchun qo'limga qalam oldim, uni Olloh yagona qilib yaratdi, meni taqdirimga bitilgan makonimsan, deya yurak so'zlarini oddiy, xalqona va hayajonli tarzda namoyon etadi.

Insonni ma'naviy barkamol, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyos. Zero, ma'naviyat va ma'rifat, insonparvarlik, istiqlol va erkinlik hamda iqtisod tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Butun insoniyatga xos qadriyatlarni ulug'lagan, inson taqdiri va uning orzu istaklarini tarannum etib kelayotgan badiiy adabiyot faqat ma'naviyat uchungina emas, balki hayotning barcha jabhalari uchun ham xizmat qiladi. Badiiy adabiyot inson qalbini shunchaki tasvirlab qolmasdan, unda badiiylik, obrazlilikni vujudga keltiradi. Erkin Vohidovning ushbu faxriyasida Vatanga bo'lgan cheksiz faxr va iftihar tuyg'usi yorqin namoyon bo'lgan:

Toleim bor ekan,

Senga hamnafas,

Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.

Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,

Tug'yonli asrda senda tug'uldim.

Gullar sochding men ilk bosgan qadamga

Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.

Jahon ichra mening tengsiz jahonim – O'zbekistonim [3.218].

Shoir shu yurtda tug'ilib o'sganidan mamnunligini naqadar jozibali va badiiy o'xshatishlar bilan ifoda etgan. “Yuz yil oldin yoki yuz yil keyin emas, aynan tug'yonli asrda tug'ilib, shu Vatan bag'rida erkin ulg'aydim. Men uchun jahon ichra tengsiz jahonim” deya faxrlanadi. Ma'lumki, “She'riyat shoir va o'quvchi o'rtasidagi dil suhbatini demakdir. Shoir uchun bu suhbat-yurakni borlig'i bilan ochmak, o'quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamakdir” [2.141].

Yiroqdan eshitib surnay ovozin

Ko'chaga yugurgan bola singari,

Men ham qo'lga olib sibizg'a sozim

To'yingga shosharman eldan ilgari.

Tilak shu-qo'shig'im katta bayramga

Yetib borsa kichik to'yona bo'lib.

Mening ham qolmasdi dilda armonim,



O'lkam, onajonim, yuragim, jonim – O'zbekistonim [3.223].

Erkin Vohidov ushbu faxriyani yurtimiz istiqbolini oldindan ko'ra bilgandek, bundan ancha yil oldin yaratgan edi. Shu ma'noda, shoir faxriyasi g'oyasi va mohiyatan Cho'lponning erk, ozodlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan she'rlarini eslatadi. Ushbu faxriya bugun rivojlanib borayotgan mustaqil, erkin va farovon Vatanimiz iqbolini ulug'lash ruhida bitilgan. O'z misralarida ta'kidlaganidek, bugun mustaqil jahon minbaridagi O'zbekistonimiz uchun tabrik, g'urur deb qabul qilsak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizning gullab yashnashida o'z hissamizni qo'shish, undan faxrlanish biz yoshlarning burchimizdir. Shoir she'ridagi "O'lkam, onajonim, yuragim, jonim – O'zbekistonim", ta'riflari barchamiz uchun o'ziga xos shiordir.

Zero, E.Vohidovning nafaqat mazkur faxriyasi balki butun ijodi insonga ma'naviy ozuqa berishi, oliyjanob tuyg'ularning kamol topishida, Vatanga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu o'rinda shoirning "O'zbekim" qasidasi ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur qasida ham "O'zbekiston", faxriyasi bilan hamohangdir. "O'zbekim" qasidasida xalq tarixi, o'tmishi, istiqboli o'zining bektakror ifodasini topgan. Ahamiyatlisi shundaki, har ikki asar ham mustaqillik yillaridan oldin yaratilgan bo'lib unda shoir o'z qalb kechinmalarini realistik tarzda tasvirlagan. Bu esa shoirning o'ta jasoratli va matonatli inson ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, har ikki asarda ham shoir shaxsiyati yorqin namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008.
2. Умиров Х. Адабиёт қоидалари. Тошкент, "Ўқитувчи", 2010.
3. Эркин Воҳидов. Сайланма 1-жилд. Тошкент, "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1986.